



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

JARQO‘RG‘ON TUMANI MIKROTOPONIMLARINING LUG‘AVIY- MA‘NOVIY XUSUSIYATLARI

Shahnoza MAJIDOVA*

Annotatsiya

Mazkur maqolada Jarqo‘rg‘on tumani hududida shakllangan mikrotoponimlarning lug‘aviy-ma‘noviy xususiyatlari lingvistik jihatdan o‘rganiladi. Unda mikrotoponimlarning tarixiy ildizlari, mahalliy aholi nutqidagi qo‘llanish doirasi hamda ularning semantik qatlamlari tahlil qilingan. Shuningdek, hududning tabiiy-geografik sharoiti, etnolingvistik omillar va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning nomlanish jarayoniga ta’siri yoritilgan. Tadqiqot natijasida mikrotoponimlarda xalqning turmush tarzi, urf-odatlar va qadimiy dunyoqarashlari aks etishi ilmiy asoslangan. Ushbu maqola Jarqo‘rg‘on tumani toponimiyasining boyligini ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Jarqo‘rg‘on tumani, mikrotoponimlar, lug‘aviy xususiyatlar, ma‘no tahlili, etnolingvistika, madaniy meros, toponimiya.

Lexical And Semantic Features of Microtoponyms of Jarqo‘rg‘on District

Abstract

This article examines the lexical and semantic features of microtoponyms formed in the Jarkurgan district from a linguistic perspective. It analyzes the historical roots of these place names, their usage in local speech, and the semantic layers they embody. The influence of geographical conditions, ethnolinguistic factors, and socio-cultural processes on the naming system is also highlighted. The study demonstrates that microtoponyms reflect the lifestyle, traditions, and ancient worldview of the local population. This research plays an important role in revealing the richness of Jarkurgan district toponymy.

Keywords: Jarkurgan district, microtoponyms, lexical features, semantic analysis, ethnolinguistics, cultural heritage, toponymy.

Surxondaryo viloyati hududidagi toponimlar sistemasi juda qadimdan boshlab to bizning kunlarimizgacha bo‘lgan tarixiy davrlarning mahsuli. Bu vodiyda ham insoniyat jamiyati yuzaga kelgandan buyon unda turli urug‘, qabila, elat va xalqlar vaqtincha yoki doimiy ravishda yashab o‘tdilar, hayot kechirdilar, yashamoqdalar. Bu vodiy xalqlari ham tarixiy taraqqiyot taqozosi bilan bir necha ijtimoiy shaklsiyalarni o‘z boshidan kechirdi. Shu uzoq davrlardan beri bu yerlarda bo‘lib o‘tgan, yashab ketgan, yoki yashab kelayotgan xalqlar, turli ijtimoiy-iqtisodiy shaklsiyalarda yuz bergan o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy, sotsial va tabiiy voqea-hodisalarning hammasi u

* Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). Termiz davlat pedagogika instituti, majidovashahnoza59@gmail.com

yoki bu darajada bu yerlarda o'z izlarini qoldirgan. Bunday izlarning bir qismi davrlar o'tishi, almashishi bilan asta-sekin unutilib, o'zgarib, biri "o'lib" boshqasi "tug'ilib", yangilanib kelgan bo'lsa, yana bir qismi abadul-adab saqlanib qolgan. Shuning uchun Surxon vodiysi katta bir xazina bo'lib, u ulkan xazina kishilik jamiyatining butun o'tmish tarixini o'z yelkasida e'zozlab, avaylab, ko'tarib, "ko'mib" keladi.

Ma'lum bo'ladiki, Surxondaryo toponimiyasi bir yoki bir-ikki tarixiy davrning, bir yoki ikki ijtimoiy-siyosiy voqeaning mahsuli emas. U birdan ham, bittalab ham paydo bo'lmagan. Uning paydo bo'lishi, shakllanishi, rivojlanib turishi barcha davrlarga, ijtimoiy-siyosiy xususiyatlarga daxldordir. Masalaning bu tomoni hozirgi paytda tarixchi, etnograf, geograf, geolog va ayniqsa, tilshunos-toponimist olimlarga yaxshi ayondir. Ana shunday toponomik joylardan biri Jarqo'rg'on tumanidir.

Jarqo'rg'on. "Jarqo'rg'on" toponimi qadimda "jar yoqasida joylashgan qo'rg'on" nomidan kelib chiqqan. Arab-fors manbalari bergan ma'lumotlarga ko'ra, Jarqo'rg'on shahri o'rnida VIII-XII asrlarda Charmangan (Sarmangan) shahri mavjud bo'lgan. Bu davrda Jarqo'rg'on vohada mavqeyi jihatidan Termizdan keyingi ikkinchi shahar bo'lgan.

Termiz va Sag'oniyon (Chag'oniyon) shaharlari o'rtasida, ya'ni Termizdan 6 forsah (bir forsah 6–8 km.ga teng) shimoliy-sharqda Sarmangan (ba'zan Charmangan deb ham qo'llangan) shahri bo'lgan. Bu shaharning qoldig'i hozirgi Jarqo'rg'on tumani hududidagi Minor nomi bilan yuritilib kelinayotgan xaroba o'rnida bo'lgan. V.V.Bartoldning yozishicha, Sarmangandan (charmangan) 6 forsah shimoliy sharqda Darzangi qishlog'i bo'lgan va qishloq odamlari to'quvchilik kasbi bilan shug'ullanganlar. Qishloqda katta bozor va bir necha masjidlar bo'lib, aholisi boy va badavlat yashaganlar. Qishloq yonidan Surxondaryo va yana bitta daryo oqib o'tgan. Muallif bu daryoni hozirgi Qumqo'rg'on qishlog'ining g'arbidagi Bandixon yoki Ko'kjar soyi bo'lsa kerak, deb taxmin qiladi. Sag'oniyon (Chag'oniyon) Sarmangan (Charmangan) va Darzangi atamalari hozir toponim sifatida umuman qo'llanilmaydi, bu nom unutilgan va qanday nom bilan almashganligi, uning aniq o'rne haqida aniq ma'lumot yo'q.

V.V.Bartold bundan keyingi asarlarida ham til va xalqlar tarixini o'zida aks ettirib kelayotgan toponimlarga katta e'tibor bilan qaragan. Surxondaryo vodiysi hududidagi ko'plab joy nomlari haqidagi ma'lumotlarni yig'ib, ularning o'rnini, paydo bo'lish davri, atalish sabablarini xalqlar tarixi bilan bog'liq ravishda batafsil ochishga harakat qilgan. Ammo, V.V.Bartold O'rta Osiyo xalqlari tarixini, joy nomlarini o'rganishda ko'proq manbalarga asoslanib, ayrim obyektlarni bevosita ko'rib, obyekt tarixiy-toponimlarining atalish sababini tarixiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan atroflicha tahlil qilmagan. Toponimlarning semantik va struktural tomonlarini tekshirishni alohida maqsad ham qilib qo'ymagan. Ammo O'rta Osiyo joy nomlarini to'plash va uni o'rganishdek muhim vazifani V.V.Bartoldgacha biror

olim mehnat sarflab, ilmiy tadqiqot olib bormagan. Shuning uchun ham V.V.Bartold asarlari O'rta Osiyo toponimlarini o'rganish va tadqiq qilishga kirishgan har bir mutaxassis uchun katta ahamiyatga ega.

Jarqo'rg'on tumani mikrotoponimiyasida turli mavzu yo'nalishlariga xos toponimlarni kuzatish mumkin. Bunga izlanishlar va o'rganishlar davomida yaqqol amin bo'ldik. To'plangan faktlar asosida quyida keltirilgan xulosalarga kelindi.

Jarqo'rg'on mikrotoponimiyasida kasb-hunar bilan bog'liq toponimlar hamda etnonimlar bilan aloqador toponimlar alohida o'rin egallaydi. Maqolada mana shu ikki guruh toponimlarni tahlil etamiz.

Kasb-hunar bilan bog'liq toponimlar.

Arobasozlar — ikki qismdan iborat toponim. O'tmishda bu yerda yashagan aholining kasbi-korini ifodalaydi. Aslida - aravasoʻz shaklida bo'lishi kerak. Bu qishloq aholisi arava yasash va tuzatish bilan shug'ullangan. Qishloq hududida aravasoʻzlik ustaxonalari ham bo'lgan.

Baqqolon — ikki qismdan tashkil topgan toponim. O'tmishda aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan turli xildagi ro'zg'or buyumlari hamda oziq-ovqat mahsulotlarini sotuvchi kishi baqqol, uning do'koni joylashgan joy esa boqqollik deb yuritilgan. Mana shunday joylardan biri Baqqolon qishlog'idir. Bu qishloq ahli katta yo'l atrofida do'kon qurib, savdogarlar karvonlariga o'z mahsulotlarini chiqarib sotishgan.

Bo'yrobof — ikki qismli toponim. Bu qishloqning atrofi suv, tashlandiq ko'llardan iborat bo'lgan, qamishlar o'sgan, aholi avvaliga o'zlaridagi mahalliy materiallardan, so'ngra esa uzoq-uzoqdagi ko'llarda o'sgan qamishlarni o'rib olib kelib, asosan, bo'yroboflik bilan shug'ullanganlar. Bo'yra — palos ostidan tashlanadigan qamishdan to'qiladigan bir mato bo'lib, yerdan chiqadigan namlarni saqlagan.

Dukchilar — uch qismdan tashkil topgan toponim. O'zbek tilida duk so'zi bo'lib bu asbob to'quvchilikda ishlatiladi. Ana shu asbobni yasovchilarni dukchilar deb ataganlar. Sekin-asta bu so'z xalq tilida dukchi deb atala boshlagan. Dukchilar qishlog'i nomi ana shu kasb-hunar egalariga sifat berib atalgan.

Mirishkor — toponim ikki qismdan iborat. Dehqonchilikning sabzavotchilik va polizchilik sohasi ustalarini mirishkor deb ataydilar. Aytishlaricha, bu qishloqda yashaganlarning ota-bobolari o'z kasbining ustasi mirishkor dehqon bo'lgani uchun ham ular yashagan qishloqni shu nom bilan ataganlar.

Charmgaron — ikki asosli toponim hisoblanadi. Bu manzilda, asosan, chorva mollari terisini qayta ishlab, sifatli charmlar tayyorlovchi hunarmandlar yashagan. Qishloq nomi ham ana shu hunarmandlarga sifat berilib atalgan.

Etnonimlar bilan aloqador toponimlar.

Nayman — qishloq nomi. O'zbeklarning Nayman urug'i nomi bilan atalgan. Qadimda turkiy va mo'g'ul xalqlari tarkibida qadimiy qabilalardan biri nayman deb

atalgan. O'zbek, qozoq, qirg'iz, no'g'oy, oltoy va boshqa turkiy xalqlar tarkibida naymanlar yirik qabila, qabila uyushmasi sanalgan. Naymanlar o'zbek xalqining saroy qabilasi bilan ittifoq, yonma-yon yashagan. Shu bois ularni naymansaroy ham deb atashgan. Mo'g'ul tilida nayman so'zi — sakkiz ma'nosini bildirgan. Shu ma'no tufayli naymanlarni sakkiz urug', qabila turkiy xalq deb ham izohlashgan. Nayman etnonimi *do'rman, oqman, qaraman, yomson, baqman, so'qman, cho'qman, shoman, turkman, zarman* kabi o'zbek urug' nomlari bilan bir xil tuzilish va yasalishga ega. Etnonimlarning bosh qismidagi so'zlar boshqaboshqa. So'nggi qismi bo'lmish man/mon so'zi esa turkiy tillarning o'tmishida odam(lar), kishi(lar), urug' ma'nosini bildirgan.

Saroylar — saroy o'zbek qavmlaridan birining nomi bo'lib, qishloqni shu urug' nomi bilan ataganlar. Saroy qadimgi turkiy qabilalardan biri. *Oqsaroy, qirg'izsaroy, qipchsoqsaroy, ilamjisaroy, jomonsaroy, chemsaroy, jolong'ochsaroy* qabi bo'limlari bor. Saroy so'zining etimologiyasi haqida ma'lumotlar aniqlanmagan.

Minglar — minglar o'zbeklarning 92 urug'idan eng kattasi hisoblanadi. Bu qishloq ushbu urug' nomi bilan atalgan. Ba'zi manbalarda 9 ming qabilasining nomi ming raqami (1000) bilan bog'liqligi qayd etilgan. Qabilaning ming so'zi bilan atalishi noaniq. Uzoq o'tmishda ming soni eng katta miqdorni anglatgan. Ming urug'i turkiy qabilalar orasida eng yirigi bo'lganligi sababli ham shu so'z ishlatilgan bo'lishi mumkin.

Qo'ng'iro't — qo'ng'iro't o'zbeklar 92 urug'idan birining nomini bildiradi. Demak, bu yerda qo'ng'iro't qavmi zurriyodlari manzil qurgan. Qishloqni ham shu nom bilan ataganlar. Ba'zan qo'ng'iro't so'zini — *qo'ng'iro't tusli ot mingga kishi* bilan bog'laydilar. Ayrim olimlar qo'ng'iro't so'zining qo'ng'iro't so'zini qo'ng'ir ot totemi bilan aloqador deb hisoblagan. Prof. T.Nafasov qo'ng'iro't so'zini hozirgi mo'g'ul tilidagi *xeree* — *qarg'a*, buryat-mo'g'ul tilidagi *gerey* — *qarg'a* so'zidan kelib chiqqan deb hisoblaydi. Qarg'aga topinuvchilar — qo'ng'iro't: qush nomi totem nomi urug' nomi qishloq nomi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Begmatov E., Uluqov N. (2006). *O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati*. Namangan.

Do'simov Z., Egamov X. (1977). *Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati*. Toshkent.

Nafasov T. (1988). *O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati*. Toshkent.

Марқаев К. (2007). *Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи*. Филол. фанл. номз. диссер... автореф. Тошкент.

Nafasov T., Nafasova V. (2007). *O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati (maktab o'quvchilari, kollej va litsey talabalari uchun)*. Termiz.

Begimov O.T. (1999). *Janubiy O'zbekiston toponimlarining o'zlashgan qatlami*. Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. Toshkent.

Begmatov E. (1991). *O'zbek ismlari*. Toshkent.

Mamedov M. (1981). *Xalq nomlari joy nomlarida*. Toshkent.